



## SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA PUBLITSISTIK JANRLAR VA BADIY TAFAKKUR MASALALARI

**Quranbayeva Gulianbar Umirbek qizi,**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti*

0009-0007-0934-7990

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18242461>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sirojiddin Sayyid ijodida publitsistikaning o'ri va ahamiyati badiiy tafakkur bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Shoir publitsistikasining janrlar tizimi – esse, portret-maqola, portretga chizgi va adabiy xotiralar misolida ochib beriladi. Tadqiqotda badiiy publitsistikaning adabiyot va jurnalistika oralig'idagi sintez xususiyati, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik hamda muallif "men"ining faol namoyoni ilmiy asosda yoritiladi. Sirojiddin Sayyid publitsistikasida Vatan, tarix, ijodkor shaxsiyati va milliy o'zlik masalalari yetakchi mavzu sifatida talqin qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy publitsistika, esse, portret-maqola, adabiy xotira, muallif "men"i, poetik tafakkur, Vatan mavzusi.*

**Kirish.** Asrlar mobaynida publitsistika insoniyat hayotini ijtimoiy aspektida faol aks ettirganligi jihatidan ham, turli soha elementlarini bir nuqtada umumlashtirishi jihatidan ham ulkan ahamiyat kasb etib kelgan. Bugungi kunga kelib publitsistika adabiyotning ham ajralmas bo'lagiga aylandiki, pirovardida publitsist hamda ijodkor shaxsiyati birlashgan nuqtada maydonga kelgan badiiy publitsistik asarlar, janrlardagi yangilanishlar salmog'i tobora ortib bormoqda. Bir qaraganda, badiiy publitsistika taroziga ham o'xshaydi: uning bir pallasida badiiy adabiyot, ikkinchisida publitsistika turadi. Badiiy publitsistik janrlar – esse, ocherk, maqola, pamflet, felyetonlarda badiiy adabiyot unsurlari ko'zga tashlanadi. Ularda obrazlilikka asoslanuvchi sifatlash, o'xshatish, sarkazm, grotesk, giperbola kabi tasviriy vositalardan samarali foydalaniladi. Ayni paytda badiiy publitsistika tahliliy va tanqidiy maqolalarda faktlar, dalillar kabi jurnalistik nuqtayi nazarlarni ham butunlay chetlab o'tmaydi. Shu jihatdan ham badiiy publitsistika janrlarini adabiyot va jurnalistika sohalarini bog'lab turuvchi oltin ko'priikka o'xshatishadi.

“Publitsistika nazariyasi fani sohasida ma'lum ilmiy asarlar vujudga kelgan. E.Jurbina, V.Roslyakov, A.Shumskiy, A.Seytlin, A.Grechnev va boshqalarning publitsistika, xususan, badiiy publitsistika masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu asarlarda ocherk, felyeton va boshqa badiiy-publitsistik janrlarning hayotni aks ettirishdagi o'ziga xos xususiyatlari asoslab berilgan”. [7:3] O'zbek adabiyotshunosligida XX asr o'zbek publitsistikasining shakllanishi, takomil tamoyillari, nazariy tomonlari, mavzu ko'lami, uslubiy xususiyatlari, janrlari va boshqa ko'plab masalalar O.Tog'ayev,



M.Xudoyqulov, X.Do'smuhamedov kabi olimlar tomonidan umumnazariy va individual aspektda o'rganilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab publitsistika nazariyasida esse janrining faol o'rganilishi kuzatilib, u adabiy tafakkurda yangi bosqich – subyektivlik va muallif “men”ning yetakchi fenomen sifatida maydonga chiqishiga xizmat qilgani qayd etiladi. Aynan shu jihat badiiy publitsistikaning postmodern adabiy jarayonlar bilan uzviy bog'lanishiga olib kelgan.

O'zbek adabiyotshunosligida publitsistika masalalari alohida ilmiy yo'nalish sifatida XX asrda shakllandi. Bu borada **Olimjon Tog'ayev, Mamatqul Xudoyqulov, Xayrulla Do'smuhamedov** kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ishlarida o'zbek publitsistikasining shakllanish bosqichlari, janrlar taraqqiyoti, mavzu ko'lami, uslubiy xususiyatlari hamda ijtimoiy-estetik funksiyalari tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot Sirojiddin Sayyid ijodida badiiy publitsistikaning o'rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda adabiyotshunoslik va publitsistika nazariyasining zamonaviy metodologik yondashuvlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida badiiy publitsistikaning janr xususiyatlari, estetik va ijtimoiy funksiyalari, muallif pozitsiyasi hamda poetik tafakkur masalalari tizimli ravishda o'rganildi.

Ishda **tavsifiy (deskriptiv) metod** orqali shoir publitsistik asarlarining mazmun-mohiyati va badiiy xususiyatlari bayon qilindi. **Tahliliy metod** yordamida publitsistik matnlardagi obrazlilik, ramziylik, poetik ifoda vositalari hamda publitsistik unsurlar o'zaro munosabatda tadqiq etildi. **Qiyosiy-tipologik metod** asosida sirojiddin sayyid badiiy publitsistikasi zamonaviy o'zbek adabiyotidagi boshqa publitsistik namunalari bilan umumiy va farqli jihatlarda solishtirildi.

**Tahlil va natijalar.** Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida ko'plab ijodkorlarimiz yaratgan badiiy publitsistika namunalari bir qancha tadqiqotlarga tatigulik manba vazifasini o'taydi.

Shu jihatdan aytish mumkinki, she'riyat maydonida mavzu doirasi keng bo'lgan Sirojiddin Sayyid ijodida ham badiiy publitsistikaning nisbatan yangi janrlari – esse yoki badia, portretga chizgi, portret-maqola, suhbat-intervyu kabilar ham keng qamrovni hosil qiladi. Badiiy publitsistika shoir ijodining jon tomirlaridan biriga aylanib ulgurdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning publitsistikaga qo'ygan ilk katta qadami 1992-yilda “Cho'lpon” nashriyoti tomonidan chop qilingan "Mehr qolur, muhabbat qolur" nomli kitobi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur kitobdan shoirning badialari va maqolalari o'rin olgan. Keyinchalik birin-ketin shoirning nasriy ohangdagi asarlari chop etila boshlandi. Maqolalar, badialar,



xotira va suhbatlar aks etgan “Yashasin yomg‘irlar” (2007), badiiy-publitsistik maqolalari, suhbatlar va badialar jamlangan “Bug‘doybo‘y Vatan”(2011), she‘rlar va maqolalardan iborat “Matonat manzumi”(2018) kabi kitoblari fikrimizning dalilidir.

2018-2019-yillarda Sirojiddin Sayyidning 1975-yildan 2018-yilgacha yozgan asarlari bir joyga jamlanib IV jildik Asarlari nashrdan chiqdi. Bu kitoblarning barchasida shoirning turfa janrdagi asarlari o‘rin olgan. Kitoblar so‘nggida turli yillarda yozilgan badiiy publitsistika namunalari aks etgan. Janrlar taqsimlanuviga ko‘ra to‘plamlarning so‘nggi sahifalaridan o‘rin egallagan har bir maqola, badia yoki adabiy suhbatlar ijodkorning publitsistika sohasidagi muntazam ijodini namoyon etadi. Uning shu paytgacha “Men ketarman ayta-ayta oxiri”, “Jevachining o‘g‘li”, “Xayr endi, bahorim”, “Yashasin yomg‘irlar!”, “Ortda qolgan iz”, “Shoir va shoirchilik”, “She‘riyatda “kalla” masalasi”, “Mening ham barglarim to‘kilayotir”, “Jozib jununlar”, “Ey, menga daryoday dil bergan Vatan”, “O‘z otangning eshigi yoxud vatan haqida qanday yozmoq kerak”, “Mutolaa “tulpori”, “O‘lmas Umarbekov ko‘chasi”, “Vatanni o‘rganish (Ustoz Shukur Xolmirzayev saboqlari), “Assalom, qurol! Alvado, qurol!” , “Bir mutarjim xokisor”, “Ikki asr – bir hayot”, “Sog‘inchlar ro‘znomasi” va yana juda ko‘plab maqolalari, xotira va esselari, portret-maqola yoki portretga chizgilari to‘plamlaridan joy olib, publitsistik ohanglarda ham shoirning tafakkuri tiniq, badiiy obraz yaratish mahorati yuksak ekanligini isbot etadi. Zeroki, “yozuvchi publitsistikasining yana bir muhim xususiyati muallifning obrazlar vositasida ish ko‘rishida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi o‘z zamonasiga oid muayyan voqea-hodisaga munosabat bildirayotib, bu hodisani aynan tilga olmasligi ham mumkin. Ya‘ni obrazli til va timsollarga o‘rab aytilgan publitsistik muammo targ‘ibot, tashviqot, publitsistik fikr singari o‘quvchining ongiga emas, ruhiyati va his-tuyg‘ulariga ta‘sir etishi orqali sof publitsistik asardan ko‘ra kattaroq vazifani bajaradi”.[6:12] Shu ma‘noda aytish joizki, Sirojiddin Sayyid hattoki eng siyosiy, ijtimoiy, dolzarb masalalarga munosabat bildirish jarayonida ham so‘zga nihoyatda chiroyli “libos kiydirib”, badiiy obrazlilikka burkagan holda yoritib beradi. Natijada, tasvir va ifodada hissiy ta‘sirchanlik namoyon bo‘ladi. Bu jarayon, ayniqsa, uning Ona Vatan haqidagi esselarida, maqolalarida yorqin ko‘zga tashlanadi. Muallif ba‘zi publitsistik asarlarida garchi tarixiy voqealarni qalamga olib, sho‘ro tuzumi davrida o‘zbek millatining moddiy va ma‘naviy ahvoliga juda ko‘p tazyiqlar bo‘lganini, millat qullik maqomiga kelib qolganligini bayon qilishni maqsad qilgan bo‘lsa ham, tarixiy faktlarni obrazli so‘z vositasida shu qadar yuksak darajada ifodalaydiki, natijada, kitobxon tarixiy asarlarda baayni shu hodisalarni o‘qib o‘tgan bo‘lsa ham, so‘zning ta‘sir kuchi,



estetik va psixologik zalvari natijasida nafaqat ongida, balki ruhiyatida ham ma'naviy tozarish hissini tuyadi. Ijodkor qahramonlar tasvirini berishda yoki ma'lum situatsiyani bayon qilish uslubida o'zining hayotbaxsh palitrasini ravshan namoyon qila oladi. Aynan shu xususiyatlari jihatidan ham badiiy publitsistika ijodkori yaratgan ijod namunasi oddiy jurnalist tayyorlagan reportaj yoki ijtimoiy-siyosiy lavhadan, yoxud tarixchi yozgan faktik ma'lumotlarga asoslangan asarlardan badiiy unsurlarga boyligi, psixologik talqinning yetakchiligi hamda falsafiy mushohadaga egaligi bilan ustuvor ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Badiiy publitsistikaning ocherk, maqola, felyeton kabi an'anaviy janrlar tarkibiga esse, suhbat-intervyu, yon-daftar, yozuvchi qaydlari, bosh maqola singari janr va janr ko'rinishlari hisobiga kengaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar yozuvchi publitsistikasi janrlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Muallifning mavzu ko'lami tadqiq etilganda uning poeziyasida ham, publitsistikasida ham Vatan mavzusi asosiy planda ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Sirojiddin Sayyidning butun she'riyatida Ona Vatan siymosi boshqa mavzularga nisbatan zalvarli ekanligini e'tirof etish joiz. Sirojiddin Sayyidning publitsistik prozasida Vatan, Ona, muhabbat, sadoqat, nafrat, ajdodlar yodi, tarix, tabiat, go'zallik, she'r va shoirlik kabi turli mavzular mujassamlashgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Sirojiddin Саййид. Асарлар. I жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
3. Sirojiddin Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
4. Sirojiddin Саййид. Асарлар. III жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
5. Sirojiddin Саййид. Асарлар. IV жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2019.
6. Курбонова С. Ёзувчи публицистикасининг таракқиёт тамойиллари. –Тошкент. “Мухаррир”. 2012.
7. Тоғаев О. Ўзбек бадий публицистикаси (назария ва маҳорат масалалари). –Тошкент. Фан. 1973.